



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar- iyun*



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

2023-yil 1-iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yil 1-iyul holatiga doimiy aholi soni **1 986,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **10,7** ming kishiga yoki **0,5 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **971,4** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **48,9 %**), qishloq aholisi soni **1 015,5** ming kishi (**51,1 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1 986,9 ming kishi

Tabiiy o‘shish

+14,6 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



48,9 %

Qishloq



51,1 %


Aholining tabiiy harakati

	kishi		o‘shish, kamayish (+,-)	har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2022y.	2023y		2022y.	2023y
Tug‘ilganlar	18 778	19 488	710	19,4	19,8
O‘lganlar	4 388	4 901	513	4,5	5,0
Tabiiy o‘shish	14 390	14 587	197	14,9	14,8
Nikohlar	7 311	6 368	-943	7,5	6,5
Ajralishlar	1 054	1 055	1	1,1	1,1

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar 2023- yil yanvar-iyun




Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni 2023- yil 1- iyul holatiga



2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi


2023-yil 1-yanvar holatiga



2023-yil 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **101,4 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib **31,9 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 0-4 yoshli bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **95,7 ming kishini** tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni **36,9 ming kishini** tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023-yil 1-yanvar holatiga



2023-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **72,9** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **70,6** yoshga, ayollar uchun esa **75,1** yoshga teng. Shahar joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **70,5** yoshni, qishloq joylar uchun **75,4** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1- iyul holatiga

Erkaklar
50,2 %
997,8 ming kishi
Ayollar
49,8 %
989,1 ming kishi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni
(1-iyul holatiga ming kishi)

	2022-yil	2023-yil	O‘sish sur‘ati, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 962,4	1 986,9	101,2
Nukus sh.	332,1	336,4	101,3
tumanlar:			
Amudaryo	206,4	210,0	101,7
Beruniy	199,0	202,8	101,9
Bo‘zatov	21,9	21,9	100,0
Qorao‘zak	53,8	54,2	100,7
Kegeyli	73,9	74,4	100,7
Qo‘ng‘irot	133,7	135,2	101,1
Qonliko‘l	52,7	53,4	101,3
Mo‘ynoq	33,3	33,5	100,6
Nukus	52,3	53,3	101,9
Taxiatosh	75,9	76,4	100,7
Taxtako‘pir	40,7	38,8	95,3
To‘rtko‘l	222,7	226,5	101,7
Xo‘jayli	126,4	128,0	101,3
Chimboy	114,4	115,2	100,7
Shumanay	57,3	57,9	101,0
Ellikqal‘a	165,9	169,0	101,9

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi


1-iyul holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi

	2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 962,4	1 986,9	101,2
Nukus sh.	332,1	336,4	101,3
tumanlar:			
Amudaryo	206,4	210,0	101,7
Beruniy	199,0	202,8	101,9
Bo‘zatov	21,9	21,9	100
Qorao‘zak	53,8	54,2	100,7
Kegeyli	73,9	74,4	100,7
Qo‘ng‘irot	133,7	135,2	101,1
Qonliko‘l	52,7	53,4	101,3
Mo‘ynoq	33,3	33,5	100,6
Nukus	52,3	53,3	101,9
Taxiatosh	75,9	76,4	100,7
Taxtako‘pir	40,7	38,8	95,3
To‘rtko‘l	222,7	226,5	101,7
Xo‘jayli	126,4	128,0	101,3
Chimboy	114,4	115,2	100,7
Shumanay	57,3	57,9	101,0
Ellikqal‘a	165,9	169,0	101,9


Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yil 1-iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **11,9** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,1** kishiga ortgan (2022-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **11,8** kishi).

Tumanlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahrida 1522,4 kishi, Taxiatoosh tumanida 430,1 kishi, Xo‘jayli tumanida 232,3 kishi, Amudaryo tumanida 205,6 kishi, Kegeyli tumanida 80,9 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Qorao‘zak tumanida 9,2 kishi, Qo‘ng‘irot tumanida 1,8 kishi, Taxtako‘pir tumanida 1,8 kishi, Mo‘ynoq tumanida 0,9 kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




Tug'ilganlarning taqsimlanishi



Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-iyun, bola

	Tug'ilganlar soni	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19 488	19,8
<i>Nukus sh. tumanlar:</i>	3 264	19,6
Amudaryo	2 165	20,9
Beruniy	2 236	22,3
Bo'zator	172	15,9
Qorao'zak	455	16,9
Kegeyli	647	17,6
Qo'ng'iro't	1 344	20,1
Qonliko'l	512	19,4
Mo'ynoq	265	16,0
Nukus	629	23,9
Taxiatosh	611	16,1
Taxtako'pir	296	15,3
To'rtko'l	2 211	19,8
Xo'jayli	1 375	21,7
Chimboy	1 005	17,6
Shumanay	488	17,0
Ellikqal'a	1 813	21,7




2023- yilning yanvar-iyun oylarida **19,5** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,8** promilleni tashkil etdi. (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **19,4** promilleni tashkil etgan).

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun

2023-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:



Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

Otaning yoshi

Onaning yoshi

8,6 %
40 yosh va undan kattalar

80,2 %
25-39 yoshdagilar

11,4 %
25 yoshgacha



2,0 %
40 yosh va undan kattalar

68,7 %
25-39 yoshdagilar

29,3 %
25 yoshgacha


2023- yilning yanvar-iyun oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha 11,4 % chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, 80,2 % ining otasi 25-39 yoshlarga hamda 8,6 % chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha 29,3 % chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, 68,7 % ining onasi 25-39 yoshlarga hamda 2,0 % chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart




Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

	Vafot etganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 901	5,0
<i>Nukus sh. tumanlar:</i>	784	4,7
Amudaryo	494	4,8
Beruniy	385	3,8
Bo‘zatov	27	2,5
Qorao‘zak	205	7,6
Kegeyli	202	5,5
Qo‘ng‘irot	340	5,1
Qonliko‘l	110	4,2
Mo‘ynoq	101	6,1
Nukus	191	7,3
Taxiatosh	175	4,6
Taxtako‘pir	201	10,4
To‘rtko‘l	417	3,7
Xo‘jayli	255	4,0
Chimboy	464	8,1
Shumanay	162	5,7
Ellikqal‘a	388	4,6


Yanvar-iyun



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **4,9** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **5,0** promilleni tashkil etgan. (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **4,5** promille bo‘lgan).

O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **44,1 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,5 %** i – o‘simtalardan, **9,0 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,9 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,3 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,6 %** i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **29,6 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun




2023-yilning yanvar-iyun oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **28,6 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **22,8 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **48,6 %** ni tashkil etgan.

QAYD ETILGAN NIHOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart




Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni

va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, birlik


	nikohlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6368	6,5
Nukus sh. tumanlar:	996	6,0
Amudaryo	758	7,3
Beruniy	699	7,0
Bo'zatov	43	4,0
Qorao'zak	153	5,7
Kegeyli	238	6,5
Qo'ng'iro't	442	6,6
Qonliqo'l	157	5,9
Mo'ynoq	78	4,7
Nukus	190	7,2
Taxiatosh	214	5,7
Taxtako'pir	130	6,7
To'rtko'l	824	7,4
Xo'jayli	401	6,3
Chimboy	311	5,4
Shumanay	132	4,6
Ellikqal'a	602	7,2

Yanvar-iyun




2023- yilning yanvar-iyun oylarida **6,4** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan **-1,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-iyun oylarida **7,5** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart




Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, birlik

	nikohdan ajralishlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1055	1,1
Nukus sh. tumanlar:	194	1,2
Amudaryo	83	0,8
Beruniy	118	1,2
Bo‘zatov	12	1,1
Qorao‘zak	37	1,4
Kegeyli	41	1,1
Qo‘ng‘irot	92	1,4
Qonliqo‘l	25	0,9
Mo‘ynoq	17	1,0
Nukus	27	1,0
Taxiatosh	40	1,1
Taxtako‘pir	25	1,3
To‘rtko‘l	84	0,8
Xo‘jayli	76	1,2
Chimboy	72	1,3
Shumanay	29	1,0
Ellikqal‘a	83	1,0


Yanvar -iyun



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **1,1** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan. (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun



Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida jami nikohdan ajrashganlarning **25,4** % i farzandsiz, **40,2** % i bitta farzand bilan va **34,4** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajrashganlarning 2023-yilning yanvar-iyun oylarida **1 055** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2023-yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 4 218 kishini tashkil etdi.


Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 8 163 kishini, migratsiya saldosi minus 3 945 kishini tashkil etdi. (2022-yilning yanvar-iyun oylarida minus 498 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

(kishi)

	2022-yil yanvar-iyun			2023-yil yanvar-iyun		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 316	4 814	-498	4 218	8 163	-3 945
Nukus sh.	1 618	963	655	1 278	1 884	-606
tumanlar:						
Amudaryo	118	288	-170	151	398	-247
Beruniy	132	175	-43	160	335	-175
Bo‘zatov	49	137	-88	56	183	-127
Qorao‘zak	120	192	-72	99	268	-169
Kegeyli	182	293	-111	201	450	-249
Qo‘ng‘irot	204	269	-65	242	571	-329
Qonliko‘l	151	202	-51	133	260	-127
Mo‘ynoq	108	76	32	91	213	-122
Nukus	318	298	20	363	451	-88
Taxiatosh	218	243	-25	224	493	-269
Taxtako‘pir	63	149	-86	87	349	-262
To‘rtko‘l	197	251	-54	222	290	-68
Xo‘jayli	335	358	-23	337	748	-411
Chimboy	194	482	-288	244	670	-426
Shumanay	144	201	-57	156	244	-88
Ellikqal‘a	165	237	-72	174	356	-182

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar
680

Ayollar
1 492



31,3%

68,7%

Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

	Ko'chib kelganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 218	4,3
<i>Nukus sh. tumanlar:</i>	<i>1 278</i>	<i>7,7</i>
Amudaryo	151	1,5
Beruniy	160	1,6
Bo'zatov	56	5,2
Qorao'zak	99	3,7
Kegeyli	201	5,5
Qo'ng'iro't	242	3,6
Qonliko'l	133	5,0
Mo'ynoq	91	5,5
Nukus	363	13,8
Taxiatosh	224	5,9
Taxtako'pir	87	4,5
To'rtko'l	222	2,0
Xo'jayli	337	5,3
Chimboy	244	4,3
Shumanay	156	5,4
Ellikqal'a	174	2,1

Yanvar -iyun

Erkaklar
1 368

Ayollar
2 850



32,4%

67,6%




2023-yilning yanvar-iyun oylarida **4,2** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mosdavriga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-iyun oylarida **4,5** promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart




Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

	Ko'chib ketganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8163	8,3
<i>Nukus sh. tumanlar:</i>	1884	11,3
Amudaryo	398	3,8
Beruniy	335	3,3
Bo'zatov	183	16,9
Qorao'zak	268	10,0
Kegeyli	450	12,2
Qo'ng'iro't	571	8,5
Qonliko'l	260	9,8
Mo'ynoq	213	12,8
Nukus	451	17,1
Taxiatosh	493	13,0
Taxtako'pir	349	18,1
To'rtko'l	290	2,6
Xo'jayli	748	11,8
Chimboy	670	11,7
Shumanay	244	8,5
Ellikqal'a	356	4,3

Yanvar-iyun



2023-yilning yanvar-iyun oylarida **8,2** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **8,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **3,3** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-iyun oylarida **5,0** promille bo'lgan).

Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-iyun



Qoraqalpog‘iston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasidan **82** kishi, Rossiya Federatsiyasidan **3** kishi, Tojikiston Respublikasidan **1** kishi, Turkmaniston Respublikasidan **7** kishi va boshqa mamlakatlardan **2** kishi kelgan.

Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun



Qoraqalpog‘iston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasiga **3 692** kishi, Rossiya Federatsiyasiga **23** kishi, Qirg‘iziston Respublikasiga **4** kishi, Turkmaniston Respublikasiga **3** kishi va boshqa mamlakatlarga **3** kishi ketgan.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ko‘chib kelganlar
va ko‘chib ketganlar soni**

	Jami ko‘chib kelganlar (kishi)	shundan:		Jami ko‘chib ketganlar (kishi)	shundan:	
		Respublikaning boshqa hududlaridan	Xorijiy mamlakatlardan		Respublikaning boshqa hududlariga	Xorijiy mamlakatlarga
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4218	4123	95	8163	4438	3725
Nukus sh.	1278	1269	9	1884	1040	844
tumanlar:						
Amudaryo	151	148	3	398	303	95
Beruniy	160	155	5	335	168	167
Bo‘zatov	56	56	0	183	80	103
Qorao‘zak	99	98	1	268	161	107
Kegeyli	201	197	4	450	303	147
Qo‘ng‘irot	242	226	16	571	225	346
Qonliko‘l	133	132	1	260	209	51
Mo‘ynoq	91	91	0	213	102	111
Nukus	363	348	15	451	285	166
Taxiatosh	224	218	6	493	218	275
Taxtako‘pir	87	72	15	349	82	267
To‘rtko‘l	222	215	7	290	215	75
Xo‘jayli	337	332	5	748	256	492
Chimboy	244	242	2	670	349	321
Shumanay	156	150	6	244	178	66
Ellikqal‘a	174	174	0	356	264	92

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 61 222-76-57